

MENEJMENTDA BOSHQARUV USLUBINI JORIY ETISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Norbayeva Dilnoza Darvishaliyevna
(Jizzax politexnika instituti)

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi kunda jahonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, iste'molchilar talabini to'liq qondirish va iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko'prog'ida beqiyos o'zgartishlarga olib kelishi lozimligi tavsiya qilingan. Raqamli iqtisodiyotning tizimli rivojlanishida boshqaruv uslublarining o'rnini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, boshqaruv, menejment, malakali kadrlar, boshqaruv uslublari.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida zamonaviy raqamli texnologiyalar ijtimoiy farovonlik o'sishini belgilovchi asosiy ishlab chiqarish resursi sifatida qaralmoqda. Tashkilotlar va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini tomonidan zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan foydalanish ularning raqamli iqtisodiyotda samarali ishlashining eng muhim shartidir.

Korxonani raqamlashtirish zamonaviy ishlab chiqarish usullariga asoslangan holda texnologik jarayonlarni va boshqaruvning barcha darajalarida qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarish sifatini keskin o'zgartiradi va korxonaning faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarini raqamli transformatsiya jarayoni bir qancha o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib ushbu jarayonni to'g'ri tashkil qilish, korxonaning uchun kerakli strategiyani ishlab chiqish ko'p jihatdan uning faoliyatini samarali va uzluksiz tashkillashning asosiy shartlaridan biridir.

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini ijro etish borasida, shuningdek, respublikamizda raqamli iqtisodiyotni

davlat boshqaruv tizimiga tadbiq qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal rivojlantirish bo'yicha sharoitlar yaratish, shuningdek, axborot havfsizligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 31-avgustda raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qaror qabul qildi, hamda O'zR Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin.

Jahon tajribasida korxonani boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish korxonalar ish faoliyati, strategiyasi, umumli ish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. 2017-2021-yillar O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham "tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar raqobatdoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi ishlab chiqarish korxonalarini boshqaruv faoliyatida zamonaviy standartlarni ishlab chiqish boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Keyingi-yillar mobaynida O'zbekistonda yangi ochilgan korxonalar soni ortganini ko'rish mumkin. Korxonalarini samarali boshqarish va uzluksizligini ta'minlashda boshqaruv uslublarini to'g'ri qo'llash orqali boshqaruv samaradorligiga erishish mumkin. Ya'ni korxonalarini faoliyatidagi boshqaruv uslubi strategik xarakterli samaradorlik ko'rsatkichlari, xodimlar malakasi va boshqalardan boshqaruv standartlari ishlab chiqilib joriy etiladi. Korxonani boshqarishda zamonaviy usullardan foydalanish nafaqat zamon talabi balki kelajakning ham muhim talabidir.

Bizningcha, raqamli iqtisodiyot yaratuvchanlikka tayangan xo'jalik sifatida barcha tarmoqlar va sohalarda, xususan, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha tizimli mezonlarga asoslanib yo'lga qo'yilishi O'zbekiston iqtisodiyotini yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlash va mamlakatimizning jahon maydonida integratsiyasini tezlashtirish imkoniyatini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash, liberallashtirishda raqamli iqtisodiyot asosida rivojlanish jahon hamjamiyatida milliy iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. O'zbekistonda korxonalar uchun yangi boshqaruv tizimi sifatida shakllanayotgan boshqaruv tizimini tatbiq etish va shu orqali korxonalar faoliyatida innovatsion jarayonlar joriy etish hozirgi shiddatkor zamonning dolzarb talabidir. Korxonaning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlash mulkdorlar va boshqaruvchilardan mazkur sohasida keng doiradagi bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Boshqarish (iqtisodiyotda) — xo‘jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo‘naltirish jarayoni; subyektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy obyektlarga ongli maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo‘naltirish va ko‘zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi. Rahbar va xodim munosabatlari, guruhdagi psixologik muhit, mehnat jamoasi faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbar qo‘llaydigan boshqaruv uslubiga bog‘liq.

Boshqaruv uslubi — rahbarning o‘z xodimlariga nisbatan, ular orasida ishni tashkil etish bo‘yicha qo‘llaydigan odatiy hatti-harakatlari majmuasidir. Hozirga kelib boshqaruv uslubini farqlashga turli yondoshuvlar mavjud bo‘lib, ularning hech biri boshqaruv vaziyatiga mos keluvchi mukammal bir uslubni tavsiya etolmaydi. Har bir uslub albatga bironta cheklanishga ega. Qo‘llaniladigan usullar tashkilot madaniyati, qadriyatlar tizimi, menejerlar mavqei, ijrochilarning o‘ziga xos xususiyatlari, favqulodda ta’sir etuvchi omillar bilan aniqlanadi.

Rahbarlik uslubiga turli yondoshuvlar, o‘z faoliyatida uchraydigan vaziyatdan kelib chiqqan holda, muvofiq keluvchi usullar majmuasidan birontasini qo‘llash haqida xulosa chiqarishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida rahbar faqat o‘z sohasini yaxshi bilibgina qolmay, balki yaxshi tashkilotchi, ruhiyatchi (psixolog), tarbiyachi va ijtimoiy yetakchi bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun har bir rahbar xodim psixologiya, pedagogika fanlarni mustaqil egalashi kerak. Buni hayotimizdagi jiddiy o‘zgarishlar, inson omillining laollashuvi, jamoalarning o‘zini o‘zi boshqarish sharoitida ular bilan ishlash taqoza qiladi. Jamoaga a’zo bo‘lgan har bir shaxsning qalbiga yo‘l topa bilishi rahbarning ish faoliyatida asosiy ahamiyatga ega. Buni bilgan rahbar o‘z jamoasi ichida ishjarayonida vujudga keladigan har xil nizolarni jamoada, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda, yuqori tashkilotlarga chiqarmasdan o‘zida hal qilishga qodir bo‘ladi.

Bunday rahbar o‘z ishini to‘g‘ri tasbki qilgan bo‘lib, jamoa oldiga qo‘yilgan maqsad va reja topshiriqlarini o‘z vaqti da muvaffaqiyatli bajaradi. Jamoalarda sog‘lom ruhiy iqlim yaratish uchun rahbar har bir ishchi xizmatchi xodimlarning shaxsiy fazilatlarini inobatga olishga, ishchilar o‘fiasidagi hamkorlikni va o‘zaro yordamni bir-biri bilan chambarchas bog‘laydigan ijtimoiy aloqa maromini, iqtisodiy musobaqani tashkil etishga, mehnat jamoalarida ish laoliyatining pirovard natijalari uchun qulay ijtimoiy sharoitlarini yaratishga e’tibor berishi zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli qarori qabul qilinishi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim qadam bo'lib, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha qator ishlami belgilab berdi. Umuman olganda raqamli iqtisodiyotda boshqaruvning o'mi muhim ahamiyatga ega. Chunki ma'lum bir fa'oliyatni amalga oshirishdan oldin o'sha faoliyatni boshqarish negizida ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyaning qamrov darajasiga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Shukurullo Yo'ldoshmaxmudov Xurshid o'g'li.// RAQAMLI IQTISODIYOTDA BOSHQARUV MODELI TRANSFORMATSIYASI. "O'ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr
2. Darvishaliyevna, N. D. (2021). PRODUCT QUALITY MANAGEMENT IN THE ENTERPRISE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 168-170.
3. Норбоева, Д. Д. (2019). КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ. Экономика и социум, (9 (64)), 208-210.
4. Норбоева, Д. Д. (2019). МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ. Экономика и социум, (9 (64)), 204-207.
5. Darvishaliyevna, N. D. (2019). Indo-Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR).
6. Darvishaliyevna, N. D. (2023). INNOVATION RIVOJLANISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI BOSHQARISH. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMİY JURNALI, 3(1), 62-66.
7. Baytanov, O. R. (2017). Ўзбекистонда солиқ тизимини такомиллаштириш орқали оилавий тадбиркорликни янада ривожлантириш. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (6), 62-68.
8. Baytanov, O. (2023). O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT SANOATI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI, 3(3), 446-449.